



QO‘QON XONLIGI DAVLAT BOSHQARUV TUZUMINING TARIXIY OMILLARI

Xakimov Jahongir Nematjon o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur tezisdagi Qo‘qon xonligi davlat boshqaruv tizimining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan asosiy tarixiy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xonlikning siyosiy tuzilmasi, boshqaruv organlari, markaziy va mahalliy hokimiyat vakillari hamda boshqaruvdagi diniy va dunyoviy unsurlar o‘rganiladi. Maqola asosiy tarixiy manbalar, tadqiqotchilar fikri va zamonaviy tarixiy yondashuvlarga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, davlat boshqaruvi, tarixiy omillar, siyosiy tuzum, xonlik, diniy hokimiyat, markaziy boshqaruv, mahalliy idora.

Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan davlatlardan biri bo‘lib, Farg‘ona vodiysida tashkil topgan va o‘zining kuchli siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimi bilan ajralib turgan. Qo‘qon xonligining boshqaruv tizimi shariat qonunlari, mahalliy odat va an‘analarga asoslangan bo‘lib, bu tizimning shakllanishiga ijtimoiy, iqtisodiy va geografik omillar ta‘sir ko‘rsatgan.

XVIII asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklari chuqur siyosiy inkirozni boshdan kechirdi. Turli hukmdorlar orasida doimo mavjud qarama-qarshiliklarning chuqurlashib borishi, turkiy urug‘lar ittifoqi o‘zbeklar o‘rtasida siyosiy tarqoqlikning kuchayishi oqibatida xonliklarda murakkab siyosiy vaziyat yuzaga kelib, bu mintaqaviy parokandalik-ka olib keldi. Natijada, O‘rta Osiyo davlatlarida markaziy hokimiyatning salohiyati susayib, hukmron sulolalarning mavqei pasayib ketdi. Bu jarayonning qonuniy davomi sifa-tida hokimiyat tepasida turgan sulolalar o‘z o‘rinlarini yangi sulolalar vakillariga bo‘shatib berishga majbur bo‘ldilar. Jumladan, Buxoroda Ashtarxoniylar Mang‘itlarga, Xivada Shayboniylar Qo‘ng‘irotlarga siyosiy maydonni bo‘shatib berdi. Qo‘qon xonligining tashkil topishi ham Buxoro xonligida kechgan murakkab siyosiy jarayonlarning hosilasi



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

sifatida ro'y bergan.¹ O'zaro ichki urushlar, urug'lararo qarama-qarshiliklar kuchayib, markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi izdan chiqdi, ular o'rtasidagi aloqalarda yakkol uzilish ro'y berdi. Natijada, mamlakat bir necha mustaqil mulklarga ajralib ketgan. Davlatning chegara hududlarida joylashgan viloyatlardagi turli siyosiy kuchlar bu vaziyatdan foydalanishga harakat qildilar. Oqibatda, markaziy hokimiyatdan mustaqil ma'muriy birliklar tashkil topgan. XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida Farg'ona vodiysida minglarning boshqa o'zbek urug'lariga nisbatan mavqei kuchayib ketib, ular tomonidan yangi davlatga asos solingan. 1709-yilda minglar urug'i yetakchisi Shoxruhbiy, garchi yangidan davlat barpo etilayotgan bo'lsada, O'rta Osiyoda azaldan mavjud an'analarga ko'ra, oq kigizga o'tqazilib, nufuzli oqsoqollar tomonidan ko'tariladi va yangi davlatning birinchi hukmdori deb e'lon qilingan². Keyinchalik mazkur davlat Qo'qon xonligi nomi bilan tarixga kiradi. Qo'qon xonligi dastlab shayboniylar va ashtarxoniylar merosidan kelib chiqqan Chingiziy tamoyillarni o'z ichiga olgan. Ammo keyinchalik, asosan mahalliy zodagonlar vakillari davlat boshqaruvining yetakchi kuchiga aylangan. Qo'qon xonligi XVIII asr boshlarida Farg'ona vodiysida vujudga kelib, qisqa vaqt ichida Markaziy Osiyodagi yirik siyosiy kuchlardan biriga aylangan davlatdir. U o'zining siyosiy-hududiy mustaqilligini mustahkamlashga va markazlashgan boshqaruv tizimini yaratishga harakat qilgan. Shuningdek, Qo'qon xonligi davlat tuzumining tarixiy ildizlari, ularni shakllantirgan ijtimoiy-siyosiy, geografik va diniy omillar, boshqaruvning markaziy va mahalliy darajalari yoritilgan. XIX asr ning ikkinchi yarmi XX asrning boshlariga oid mahalliy hamda rus tarixchi va olimlarining ko'pchiligi Qo'qon xonligi tarixini va xonlarning shajarasini Oltin Beshik va u Bobur orqali Amir Temur bilan bog'lashadi. Ammo yangi davlat hamda sulola hukmdorlarining qonuniyligi-ni asoslash maqsadida o'z davrida to'qilganligi ehtimoldan xoli bo'lmagan va keyinchalik turli mualliflar asarlaridan keng o'rin egallagan mazkur afsona hozirga qadar tarixiy dalillar yoxud arxiv ma'lumotlari asosida o'z tasdig'ini topgani yo'q.³ "Mukammal tarixi Fargona"da yozilishicha, Oltin Beshik voqeasi: "Shoxruxxonning nasabi Zahiriddin Boburga etib, Mirzo

¹ Bobobekov H. N. Qo'qon tarixi. T.: Fan, 1996. - B. 21-23

² Mulla Olim Mahdum hoji. Tarixi Turkiston. Qarshi, "Nasaf", 1992. - B. 9.

³ Bobobekov H. Qo'qon tarixi. T.: Fan. 1996. - B. 21.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

Umarshayx vositasi bilan ulug' podshoh sulolasidan Amir Temur Ko'ragonga etgay".⁴ Bunga asosiy sabab Bobur Samarqanddan chiqib, Hindistonga ketayotganda bir yosh bolasini oltin beshikka solib, bir qancha oltinlar bilan katta daraxt shoxiga ilib ketadi. Bu davrda ushbu yerlarda "Chakat" (Changat), "Saroy", "To'rg'ova" va "To'rt ayg'ir" nomli turkiy jamoalar istiqomat qilgan bo'lib, shulardan bir kishi beshikni topib olib ketishgan.⁵ To'rg'ova urug'i vakillari uni Boburning o'g'li ekanligini bilib, bolani "Oltin beshik" deb nomlashgan. Oltin beshikdan yagona Sulton Ilik dunyoga kelgan bo'lib, manbada ta'kidlanishicha, Sulton Xudoyor, Muhammad Aminxon, Shoh Abulqosim, Asilzodaxon, Siyamastbiy, Rustambek, Hojibek, Ashurkulibiy va Shohruhbiylar uning avlodlaridandir.⁶

Rivoyatga ko'ra, Oltin beshik 1545-yili vafot etib, uning o'rniga o'g'li Tangriyor hukmdor bo'lgan, ammo u o'zini xon emas balki biy deb atashgan. Ushbu unvonni uning avlodlari ham qabul qilib, Olimxonga qadar unga amal qilib kelganlar. Manbalarga qaraganda To'rg'ova, Chankat, To'qoytepa, Tepaqo'rg'on kabi qishloq vakillari yig'ilib, o'z ichidan bir kishini xon qilib ko'tarishni va o'zlari uning buyrug'iga bo'ysunishni ma'qul ko'rganlar va bunga "Oltin beshik"ning ming urug'idan bo'lgan xotinidan tarqalgan sulola vakili Shohruhbiyni tanlashgan.

Qo'qon xonligi boshqaruv tizimi, boshqa O'rta Osiyo xonliklaridan farqli ravishda, murakkablik va barqarorlik jihatdan o'ziga xos edi. Ayniqsa, bu tizimda diniy ulamolar va sulola vakillarining o'zaro muvozanati diqqatga sazovordir.

Qo'qon xonligining shakllanishi asosan quyidagi omillar bilan bog'liq:

Farg'ona vodiysi tabiiy jihatdan himoyalangan va unumdor yerlar bilan boy bo'lgan. Bu holat aholining zichligi, iqtisodiy rivojlanish va siyosiy mustaqillikni rag'batlantirishgan.

Xonlik aholisini asosan o'zbeklar, qirg'izlar, tojiklar tashkil qilgan. Bu esa turli etnik guruhlar o'rtasida siyosiy muvozanatni saqlash zaruratini tug'dirgan.

Mahalliy zodagonlar va ulamolar davlat tuzumining asosiy tayanchi bo'lgan.

⁴ Muhammad Fozilbek. Mukammal tarixiy Farg'ona. O'FASHI. Qo'lyozma, Inv № 5971, 6-sahifa.

⁵ Halim boboyev. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent. 2009.305.bet

⁶ Muhammad Fozilbek. Mukammal tarixiy Farg'ona. O'FASHI. Qo'lyozma, Inv № 5971, 7-sahifa.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

Islom dini, xususan hanafiy mazhabi va naqshbandiya tariqati boshqaruvning ma'naviy poydevori sifatida faol ishtirok etgan.

Qo'qon xonligida boshqaruvning asosiy markazi xon bo'lib, u cheklanmagan hokimiyatga ega edi. Biroq, xon atrofida uni maslahatchi va nazoratchi sifatida qo'llab-quvvatlovchi amaldorlar guruhi mavjud bo'lgan: Vazir – xonlikning bosh ijro etuvchisi, moliya, diplomatiya va ichki siyosatga javobgar bo'lgan. Qozikalon – diniy va sud tizimining rahbari. Shariat qonunlariga muvofiq ishlovchi sudlar unga bo'ysungan. Mirob – ichki xavfsizlik va jazo muassasalari uchun javobgar amaldor hisoblangan. Qushbegi – saroy tartib-qoidalari, harbiy masalalar va tashkiliy ishlarni nazorat qilgan. Darxon – mol-mulk, soliq, yerga egalik masalalarini nazorat qiluvchi amaldor bo'lgan. Bu tizim markazlashgan bo'lsada, xonlik ichkarisida kuchli mahalliy hokimiyat vakillari mavjud bo'lib, ular ko'p hollarda mustaqil harakat qilgan.

Qo'qon xonligi hududi bir necha yirik bekliklarga bo'lingan: Andijon, Marg'ilon, Namangan, O'sh, Xo'jand va boshqalar. Har bir beklikda bek lavozimiga ega mahalliy hokim tayinlangan. Beklar harbiy, ma'muriy va sud vakolatiga ega bo'lgan: Harbiy safarbarlikda qatnashgan; Soliq yig'imi va mulk nazorati bilan shug'ullangan; O'z hududida adolatni ta'minlagan, lekin qozikalonga bo'ysungan. Shuningdek, mahalliy aholining diniy va ijtimoiy hayotida ulama, shayx, imom, mudarris, qozilar faol rol o'ynagan bo'lib bu esa mahalliy boshqaruvda ma'naviy yetakchilarning ta'sirini kuchaytirgan.

Men xulosa qilib shuni aytishim mumkin, Qo'qon xonligi davlat boshqaruv tizimi o'z davri uchun nisbatan murakkab va barqaror tuzilishga ega bo'lgan. Tarixiy, diniy, ijtimoiy va siyosiy omillar bu tizimning shakllanishi va rivojiga asos bo'lgan. Xonlikdagi boshqaruv ikki asosiy bo'g'in – markaziy va mahalliy tizimdan iborat bo'lib, har biri o'z vazifasini bajargan. Diniy yetakchilarning roli, harbiy tuzilmaning mavjudligi va siyosiy ehtiyojlar doimiy ravishda boshqaruv tizimini rivojlantirishni talab qilgan. Tashqi tahdidlar va ichki muammolar xonlikni islohotlarga majbur qilgan bo'lsa-da, bu islohotlar kechikkan va natijada davlat o'z mustaqilligini yo'qotgan. Qo'qon xonligi tajribasi bugungi tarixiy tadqiqotlar va siyosiy boshqaruv tizimlarining shakllanishini o'rganishda muhim manba bo'lib



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

xizmat qiladi. U nafaqat o‘tmishdagi siyosiy model sifatida, balki Markaziy Osiyodagi davlat suverenitetining tarixiy tajribasi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bobobekov H. Qo‘qon tarixi. T.: Fan. 1996.
2. Muhammad Fozilbek. Mukammal tarixiy Farg‘ona. O‘FASHI. Qo‘lyozma, Inv № 5971, 6-sahifa.
3. Boboyev H. O‘zbek davlatchiligi. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent. 2009.
4. Mulla Olim Mahdum hoji. Tarixi Turkiston. Qarshi, “Nasaf”, 1992.
5. Google.ru.
6. Ziyouz.net.